



BYUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASINING DAROMADLARI VA XARAJATLARI TAHLILI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Jamoldinov Jasurbek

Andijon davlat texnika instituti

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: i.f.f.n., dotsent Sotvoldiyev Alisher

Annotatsiya. Ushbu maqolada byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining 2024–2025-yillardagi moliyaviy holati, daromadlar bazasining shakllanishi va xarajatlar tarkibi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining barqarorligini ta'minlashda yuzaga kelayotgan muammolar, xususan, demografik yuklama va davlat byudjetidan ajratilayotgan transfertlar ulushi o'rganilgan. Maqola yakunida pensiya tizimini raqamlashtirish va moliyaviy barqarorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.


Kalit so'zlar: daromadlar bazasi, xarajatlar tarkibi, ijtimoiy soliq, transfertlar.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilish, xususan, keksa yoshdagi fuqarolarning munosib hayot darajasini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Andijon shahri Respublikaning aholi zich joylashgan va demografik o'sish sur'atlari yuqori bo'lgan hududlaridan biri sifatida Pensiya jamg'armasi mablag'larini samarali boshqarish masalasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda pensiya tizimi oldida turgan asosiy muammo - daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirish hamda tizimning davlat byudjeti transfertlariga qaramligini pasaytirishdan iboratdir.



Asosiy qism. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining daromadlari asosan quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:



1-chizma. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining daromad manbalari [1].

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining daromadlari ijtimoiy soliq hisobidan quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

- belgilangan miqdordagi ijtimoiy soliq tushumlari;
- jismoniy shaxslar ayrim toifalarining ijtimoiy soliq tushumlari.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining boshqa to'lovlar hisobidan olinadigan daromadlari quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

- boquvchisini yo'qotgan taqdirda, shuningdek mehnatda mayib bo'lganlik yoki xodimning mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarni to'lashga xarajatlarni to'lash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'lar;
- muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan Bandlikka ko'maklashish davlat fondining Andijon shahar bo'limi mablag'lari;
- tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari;



▪ hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda ijtimoiy soliq va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar;

▪ qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va ixtiyoriy badallar.


1-jadval

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining daromadlari tahlili [2]


(ming so'm hisobida)

T/r	Ko'rsatkichlar	2024-yil	2025-yil	Farqi (+;-)
1	Ijtimoiy soliq	58 023 621,0	65 716 757,7	+7 693 136,7
2	Boshqa daromadlar	8 543 533,9	9 636 064,4	+1 092 530,5
3	Transfertlar	4 289 916,6	4 724 428,3	+434 511,7
	Jami daromadlar	70 857 071,4	80 077 250,4	+9 220 179,0

Tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, Andijon shahrida kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi natijasida ijtimoiy soliq tushumlari barqaror o'sib bormoqda. O'z navbatida budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining boshqa to'lovlar hisobidan olgan daromadlari ham ortishiga qaramasdan, budjetdan transfertlar ham ortgan.



1-chizma. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining daromadlari [3]



**1-chizma. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy tuman
shahar) bo'limlarining pensiyaga doir xarajatlari[4]**

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining pensiyaga doir xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- fuqarolarga yoshga doir pensiya to'lovi;
- mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda nogironlik pensiya to'lovi;
- boquvchisini yo'qotganlik pensiya to'lovi.

2-jadval

**Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining
pensiyaga doir xarajatlari tahlili [5]**


(ming so'm hisobida)

T/r	Ko'rsatkichlar	2024-yil	2025-yil	Farqi (+;-)
1	Fuqarolarga yoshga doir pensiya to'lovi	58 023 621,0	65 716 757,7	+7 693 136,7
2	Mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qotganda nogironlik pensiya to'lovi	8 543 533,9	9 636 064,4	+1 092 530,5
3	Boquvchisini	4 289 916,4	4 724 428,3	+434 511,7



	yo'qotganlik pensiya to'lovi			
	Jami pensiya to'lovlari	70 857 071,3	80 077 250,4	+9 220 179,0

Xarajatlarning asosiy qismi yoshga doir pensiyalar, nogironlik nafaqalari va boquvchisini yo'qotganlik uchun to'lovlarni tashkil etadi. 2025-yilda budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limida pensiyaga oid xarajatlari tarkibida yoshga doir pensiya to'lovi, nogironlik pensiya to'lovi va Boquvchisini yo'qotganlik pensiya to'lovi mutanosib ravishda ortgan.



2-chizma. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining pensiyaga doir xarajatlari

Pensiyaga doir xarajatlarning o'sib borishi quyidagi omillar bilan bog'liq:

- Pensiya miqdorlarining inflyatsiya darajasiga mos ravishda muntazam indeksatsiya qilinishi.
- "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali tayinlanadigan nafaqalar qamrovining kengayishi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Andijon shahar bo'limining pensiyaga doir xarajatlari tahlil qilinganda, quyidagi tizimli muammolar ko'zga tashlanadi:

1. **Transfertlarga bog'liqlik:** Jamg'arma o'z xarajatlarini to'liq o'z daromadlari hisobidan qoplay olmayapti. 2024-yilda budjetdan transfertlar 4 289



916,6 ming soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2025-yilda borib bu koʻrsatkich 4 724 428,3 ming soʻmni tashkil engan. Natijada, budjetdan transfertlar +434 511,7 ming soʻmga ortgan.

2. **Norasmiy bandlik:** Shahar hududidagi hunarmandchilik va bozor savdosi sohasida ishlovchilarning katta qismi ijtimoiy sugʻurta tizimiga jalb qilinmagan.

3. **Raqamlashtirish darajasi:** Pensiya tayinlashda inson omilini kamaytirish boʻyicha ishlar boshlangan boʻlsa-da, arxiv maʼlumotlarini toʻliq raqamlashtirish yakuniga yetmagan.

Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi Andijon shahar boʻlimi faoliyatini samarali tashkil etish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

A. Daromadlar bazasini kengaytirish

1. **Ixtiyoriy sugʻurta tizimini targʻib qilish:** Oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar uchun pensiya tizimiga kirish imtiyozlarini kengaytirish.

2. **Soliq maʼmurchiligi:** Soliq organlari bilan hamkorlikda ish oʻrinlarini legallashtirish (qonuniylashtirish) ustidan nazoratni kuchaytirish.

B. Xarajatlarni optimallashtirish

3. **Proaktiv pensiya tayinlash:** 2025-yildan boshlab erkaklar 60 yoshga, ayollar 55 yoshga yetganda pensiya avtomatik (arizasiz) tayinlanishi tizimini Andijon shahrida toʻliq yoʻlga qoʻyish. Bu byurokratik xarajatlarni 15-20% ga kamaytiradi.

C. Investitsion faoliyatni yoʻlga qoʻyish

4. Jamgʻarmaning boʻsh turgan mablagʻlarini (vaqtinchalik erkin qoldiqlarini) yuqori likvidli aktivlarga yoki davlat obligatsiyalariga joylashtirish orqali qoʻshimcha daromad olish amaliyotini joriy etish lozim.

Xulosa. Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi Andijon shahar boʻlimining moliyaviy barqarorligi bevosita hududdagi iqtisodiy faollik va raqamli islohotlarga bogʻliq. Tahlillar shuni koʻrsatadiki, daromadlar va xarajatlar oʻrtasidagi farqni



kamaytirish uchun nafaqat davlat transfertlariga tayanish, balki ichki rezervlarni ishga solish - norasmiy sektor ulushini kamaytirish va investitsion imkoniyatlardan foydalanish zarur. Taklif etilayotgan "proaktiv xizmatlar" va "raqamli monitoring" tizimi nafaqat xarajatlarni tejaydi, balki aholining ijtimoiy tizimga bo'lgan ishonchini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagi 30-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida"gi Nizomi
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari (2024-2025).
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Andijon shahar bo'limining statistik ma'lumotlari
5. International Monetary Fund (IMF) recommendations for pension reform in Uzbekistan, 2025.